O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 4-oktabr | 529-11-0-Q/24 | Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi PF-143-son Farmonining ijrosini samarali ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:**

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini (keyingi o‘rinlarda — Dastur) amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi **1-ilovaga** muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi **maqsadli ko‘rsatkichlari 2 va 3-ilovalarga** muvofiq;

2024-2025-yillarda jadal kompleks rivojlantirilishi rejalashtirilgan tuman, shaharlar ro‘yxati **4-ilovaga** muvofiq;

Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasining vasiylik kengashi tarkibi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi;

Vazirlar Mahkamasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, vazirlik va idoralarning shtat birliklariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinganligi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab kambag‘al oilalar farzandlari davlat maktabgacha ta′lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinishi;

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab, kambag‘al oilalar farzandlarining davlat oliy ta′lim muassasalari **talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlari Davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi**;

2025-yildan boshlab **“El-yurt umidi”** jamg‘armasi tomonidan kambag‘al oilalarning farzandlari uchun alohida kvotalar ajratilishi.

AT “Xalq banki”, “Mikrokreditbank” ATB biriktirilgan rahbarlarning xulosasi asosida:

kambag‘al oilalarga noutbuk sotib olish uchun **5 yil muddatga** 2 yil imtiyozli davr bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratilishi;

tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qiymati 30 mln so‘mgacha bo‘lgan kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko‘chma do‘konlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun 5 yil muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratilishi;

aholini tadbirkorlikka jalb qilish hamda Kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar (keyingi o‘rinlarda — kambag‘al oilalar) a′zolarining bandligini ta′minlagan tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun:

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, **“Biznesga birinchi qadam”** dasturlari hamda mikromoliya tashkilotlari orqali joriy yil yakunigacha 4,0 trillion so‘m, 2025-yilda 15,0 trillion so‘m kreditlar ajratilishi;

2024-2025-yillarda respublika darajasidagi davlat idoralari rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari eng og‘ir ahvoldagi 1 000 ta mahallaga biriktirilishi;

Bunda mahallaga biriktiriladigan mas′ullar quyidagi vazifalarni amalga oshirilishi:

tadbirkorlarning muammolarini hal etish, mahallaning iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradigan zaxira va imkoniyatlarni ishga solishga ko‘maklashishi, tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etishi;

elektr energiyasi ta′minotini yaxshilash, mahallani tuman markazi bilan bog‘lash, shu jumladan, avtobus va taksilar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ichki yo‘llarini ta′mirlash, asosiy ko‘chalarni shag‘allashtirish va energiya tejamkor yoritkichlar o‘rnatish, toza ichimlik suv bilan ta′minlash choralarini ko‘rishi;

internet tezligi va sifatini oshirishga hamda maktablar bilan birgalikda kambag‘al oilalarning a′zolari uchun axborot texnologiyalari to‘garaklarini tashkil etishga ko‘maklashishi;

mahallani tashabbusli byudjet jarayonlariga faol jalb qilish hamda mahalla infratuzilmasini yaxshilash loyihalari ishlab chiqilishida amaliy yordam koʻrsatishi;

mahallada yoki uning yaqinida joylashgan taʼlim muassasasi (umumtaʼlim maktabi, kasb-hunar maktabi, musiqa va sanʼat yoki sport maktabi) bazasida qoʻshimcha darslar, xorijiy til va kompyuter kurslari, sport toʻgaraklari tashkil etilishini nazorat qilishi;

yoshlarga, xususan, 9-sinf bitiruvchilarining taʼlim olishga va kasb-hunar oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini oshirish va ularni yoʻnaltirish, oliy va professional taʼlim muassasalarida tahsil olish orqali kelajakda yashash tarzini yaxshilash imkoniyatlari haqida tushunchalar berishi;

mahalla hududida joylashgan maktabgacha taʼlim va maktab hojatxonalari taʼmirlanishini nazoratga olishi;

har oyda bir marta oʻziga biriktirilgan mahallalarga borib, chora-tadbirlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishini tahlil qilib, yuzaga kelgan muammolarni aniqlashi va ularni joyida bartaraf etish choralarini koʻrishi;

Kambagʻal oilalar va mahallalarga biriktirilgan rahbarlarga zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida tegishli tashkilotning foydasi va byudjetdan tashqari mablagʻlaridan foydalanishga ruxsat etilganligi;

Bunda koʻmak koʻrsatish faqat kambagʻal oilalar oʻz daromadini oshirishi, farzandlarining taʼlim olishi va oila aʼzolarining sogʻligʻini tiklashi va yashash sharoitini yaxshilashi bilan bogʻliq boshqa majburiyatlarni bajargan taqdirda amalga oshirilishi;

Ushbu mablagʻlar hisobidan kambagʻal oilalarga moddiy yordam koʻrsatish taqiqlanishi;

Jamoat ishlari jamgʻarmasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamgʻarmasi negizida yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan Kambagʻallikni qisqartirish davlat maqsadli jamgʻarmasi (keyingi oʻrinlarda — Jamgʻarma) tashkil etilishi;

Jamgʻarma vasiylik kengashi Jamgʻarmaning oliy boshqaruv organi, 22 ta shtat birligidan iborat Jamgʻarma Ijro etuvchi direksiyasi esa uning ijro organi hisoblanishi inobata olinsin.

3. Viloyatda **“Kambagʻallikdan farovonlik sari”** dasturini (keyingi oʻrinlarda — Dastur) amalga oshirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi **1-ilovaga** muvofiq;

2024-2025-yillarda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va shahar va tumanlar kesimidagi **maqsadli ko‘rsatkichlari 2 va 3-ilova**larga muvofiq tasdiqlansin.

4. **“Kambag‘allikdan farovonlik sari”** dasturini ijrosini ta′minlashga viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, X.Isaqov, Sh.Raximov hamda shahar va tuman hokimlari shaxsan mas′ul va javobgar etib belgilansin.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, X.Isaqov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Jumanov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (Ziyavitdinov), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (Salimov) shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda **bir xafta muddatda** viloyatda eng og‘ir ahvoldagi **99 ta** mahallalarni ro‘yxatini shakllantirsin;

Viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro‘zaliyev), infratuzilmani yaxshilashga aloqador bo‘lgan boshqarma va tashilotlar bilan birgalikda **joriy yilning 15-oktyabrgacha** tanlab olingan mahallalarni tomorqa yerlarini sug‘orishni yaxshilash yoki ularda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini ta′minlash, internet sifatini oshirish, ichki yo‘llarni ta′mirlash va boshqa infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha amalga oshiririlishi zarur bo‘lgan ishlarni aniq hisob-kitoblarni ishlab chiqib, taklif sifatida Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov, X.Isaqov, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro‘zaliyev), Qurilish va uy-joy kommunal ho‘jaligi boshqarmasi (Pozilov), Marg‘ilon shahar hokimligi (Nisbatxonov), Quva tuman hokimligi (Umarov) tegishli mas′ullar bilan birgalikda **joriy yilning 1-dekabriga** qadar **Marg‘ilon shahar va Quva tumanini** 2024-2025-yillarda jadal kompleks rivojlantirish, shu jumladan, ularda kamida bittadan mahallada **“yashil mahalla”** loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi dasturlarni tasdiqlasin;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Ro‘zaliyev) **o‘n kun mudddatda** har bir tuman va shaharning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi **5 tadan “drayver”** loyihalar ro‘yxatini tasdiqlasin.

6. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Jumanov), Markaziy bank viloyat boshqarmasi (Do‘saliyev), viloyat tijorat banki rahbarlari hamda shahar tuman hokimliklari bilan birgalikda;

o‘n kun muddatda subsidiyalar turlarini maqbullashtirish va mazkur maqsadlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hajmini kamaytirmagan holda kambag‘al oilalarga foizsiz ssuda ajratish tartibi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflarni kiritsin;

tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni muntazam ravishda o‘tkazib borish, ularning muammolarini hal qilish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksizligini ta’minlash hamda kreditlash hajmini oshirib borish, tashabbuskorlarga bo‘sh yer maydonlarini auksion orqali sotish choralarini ko‘rsin, tadbirkorlarning infratuzilma bilan bog‘liq muammolarini hal etsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, mahallalarda kambag‘al oilani aniqlash, uni Kambag‘al oilalar reestriga kiritish, kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan choralarni ko‘rish, reestrdan chiqarish jarayonlari **“mahalla yettiligi”** tomonidan hamkorlik asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

kambag‘al oilalar **yagona savolnoma** asosida baholanadi va ularning **ijtimoiy portreti shakllantiriladi**;

ijtimoiy xodim va hokim yordamchisi tomonidan ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik, ta’lim, xulq-atvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha **individual reja ishlab chiqiladi**;

kambag‘al oilalarga - daromadli mehnat faoliyati bilan band qilish va tadbirkorlikka jalb qilish yo‘nalishida **hokim yordamchisi**, ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash va ta’lim yo‘nalishlarida - ijtimoiy xodim hamrohlik qiladi;

oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejaning samaradorligi va **natijadorligi monitoring qilib boriladi**.

8. Viloyati hokimining o‘rinbosari Sh.Raximov O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (Ziyavitdinov) **ikki hafta muddatda** mahalla raislari, mahalla faollari va nuroniylari hamda ko‘chaboshilarning Dasturda belgilangan har bir yo‘nalish bo‘yicha chuqur o‘qitilishini ta’minlasin.

Bunda mahalla raislari, mahalla faollari va nuroniylari hamda ko‘chaboshilar har kuni ko‘chama-ko‘cha yurib, har bir xonadon va oilada:

tomorqaga ekin ekish, uy-joyida shinam va fayzli muhit yaratish, tozalikni saqlash, to‘g‘ri ovqatlanish, piyoda yurish, zararli odatlardan voz kechish bo‘yicha faol targ‘ibot va tashviqot olib borsin;

farzandlarida bolalikdan boshlab kitobxonlikka mehr uyg‘otish, ularni xorijiy tillar, kasb-hunar va san’atga o‘rgatish, ayoli va qizining o‘qishi va ishlashi uchun sharoit yaratish - muhim hayotiy vazifa, degan qarashni shakllantirsin;

oʻz oldiga katta maqsadlar qoʻyib, ularga halol mehnat, doimiy izlanish va shijoat orqali erishishga intilib yashashni kundalik hayot tarziga aylantirishga koʻmaklashsin;

oʻz oilasi va mahallasining tinchligi va farovonligi uchun kuyinish, oʻzaro ahillik va hamjihatlikni taʼminlash, hayotimizdagi oʻzgarish va yangilanishlarga daxldorlik hissini kuchaytirish boʻyicha muntazam taʼsirchan ish olib borsin;

mahallalarga biriktirilgan tijorat banklari va boshqa masʼullardan mahalladagi vazifalarining toʻliq bajarilishini talab qilsin, shuningdek, kambagʻal oilalarning ijtimoiy shartnomadagi oʻz majburiyatlariga masʼuliyat bilan amal qilishi ustidan jamoatchilik nazoratini oʻrnatsin.

9. Viloyati hokimining oʻrinbosari A.Tursunov, Qishloq xoʻjaligi boshqarmasi (Fozilov) **bir oy muddatda** 2024-2025-yillarda paxta-gʻalla maydonlarini qisqartirish hisobiga **“kompaniya – kooperativ - dehqon xoʻjaligi”** tamoyili asosida dehqonchilik va bogʻdorchilik tashkil etish uchun **50 ming gektar** yer maydonini kambagʻal oilalarga **30 yilgacha** ijaraga berish boʻyicha qaror loyihasiga takliflarni ishlab chiqib Qishloq xoʻjaligi vazirligiga kiritsin.

10. Viloyat hokimining oʻrinbosari Sh.Raximov, Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi (Dolimov) va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (Saliyev) shahar tuman hokimliklari bilan birgalikda:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish tizimi samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-239-son qaroridan kelib chiqib umumtaʼlim maktablarining boʻsh turgan yer va bino-inshootlarida xorijiy tillar, kasb-hunarga oʻqitish va axborot texnologiyalari va dasturlash boʻyicha oʻquv kurslarini tashkil etish hamda maktabgacha taʼlim bilan qamrov darajasini 2025-yil yakunigacha 84,7 foizga yetkazish boʻyicha dasturini **ikki oy muddatda** Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

Sport boshqarmasi (Xakimov) bilan birgalikda 2024-yil yakuniga qadar har bir umumtaʼlim maktabida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida, shu jumladan, xususiy sektorni jalb qilgan holda maktabdan tashqari taʼlim va sport toʻgaraklari tashkil etilishini taʼminlasin.

11. Viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari X.Sirojitdinov, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (Jumanov) shahar va tuman hokimliklari, viloyat tashkilotlari rahbarlari va ularni oʻrinbosarlarining har biriga har 6 oyda 5 tadan eng ogʻir ahvoldagi kambagʻal oilalarni biriktirsin.

Biriktirilgan maʼsullarga:

oilalarning kambag‘allik holatiga tushish sabablarini o‘rganib, **“mahalla yettiligi”** tomonidan oilani kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha **individual reja ishlab chiqilishini ta′minlash**;

“mahalla yettiligi”, tijorat banklari, Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi hamda yetakchi tadbirkorlarni jalb qilgan holda oilalarning o‘z tomorqasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga, ishtiyoqi bor shaxslarning o‘zini o‘zi band qilishiga va tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishiga hamda oila a′zolarining, ayollarning kasb-hunar va xorijiy tilni o‘rganishiga, ularga bo‘sh ish o‘rinlarini topishga va ishga joylashishiga ko‘maklashish;

tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko‘chma do‘konlar, motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni foizsiz qarz hisobidan olib berish;

kambag‘al oilalar farzandlarini maktabgacha ta′lim tashkilotiga joylashtirishga ko‘maklashish, bolalarning ta′lim muassasalariga, qo‘shimcha darslar va to‘garaklarga qatnashishini nazoratga olish hamda foizsiz qarz asosida olib berilgan noutbukdan samarali foydalanishiga shart-sharoit yaratib berish, har bir oilaga homiylik asosida dars stoli va stuli, sport kiyimlarini olishga yordam berishi;

oilaning davlat tomonidan taqdim etiladigan tibbiy xizmatlardan to‘liq foydalanishini, xususan, ayollar va bolalarning tizimli ravishda skrining tekshiruvidan o‘tkazilishini ta′minlaydi, xonadon sanitariya holatini yaxshilashga, kundalik turmush tarzi va ovqatlanishda zararli odatlardan voz kechishga, yoshidan qat′iy nazar har bir oila a′zosining jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga, qariyalarni piyoda yurishga undash;

oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi omillarni bartaraf etish uchun ijtimoiy xodim bilan birgalikda zarur ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatilishini ta′minlash;

har oyda ikki marta o‘ziga biriktirilgan oilalar bilan uchrashib, kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual rejada belgilangan choralar amalga oshirilishini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni aniqlash hamda ularni joyida bartaraf etish choralarini ko‘rib borish topshirilsin.

12. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga ma′sul va shaxsan javobgar etib viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va Sh.Raximov hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i belgilansin.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
529-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Фарғона вилоятида “Камбағалликдан фаровонлик сари” дастурини амалга

ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар

РЕЖАСИ

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Масъуллар
I. Дастурни амалга оширишида ташкилий ва биринчи даражали чора-тадбирлар				
1.	Вилоят ва туман (шаҳар) ҳокимликлари ва ташкилотларининг 1430 та раҳбар ва ўринбосарларнинг ҳар бирига 5 тадан энг оғир аҳволдаги камбағал оилаларни бириктириш.	1. Туман (шаҳар), маҳалла кесимида раҳбарлар ва уларнинг ўринбосарлари бириктириладиган камбағал оилалар рўйхатини шакллантириш. 2. Камбағал оилаларнинг камбағалликка тушиш сабабларидан келиб чиқиб, раҳбарлар ва уларнинг ўринбосарларини 5 тадан оилага бириктириш. 3. Мазкур раҳбарларга 6 ойдан сўнг яна 5 тадан оилани бириктириш.	2024 йил 1 октябрь Бир ҳафта муддатда Ҳар 6 ойда	Вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари Х.Сирожитдинов, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бош бошқармаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
2.	Энг оғир аҳволдаги маҳаллаларга вилоят даражасидаги давлат идоралари раҳбарлари ва уларнинг ўринбосарларини бириктириш.	1. Кам таъминланган оилаларнинг улуши юқори, ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ҳамда инфратузилма билан таъминланиш даражаси паст бўлган энг оғир аҳволдаги 99 та маҳаллалар рўйхатини шакллантириш ва тасдиқлаш. 2. Энг оғир аҳволдаги маҳаллаларга бириктириладиган вилоят даражасидаги раҳбарлар ва уларнинг ўринбосарлар рўйхатини шакллантириш ва уларга маҳаллаларни	2024 йил 5 октябрь Бир ҳафта муддатда	Вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари Х.Сирожитдинов, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бош бошқармаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, шаҳар ва туман

		бириктириш.		ҳокимликлари
3.	Камбағалликдан чиққан оилаларнинг ижобий тажрибасини оммалаштириш, уларнинг ижтимоийлашувига, бандлигига, шунингдек, молиявий мустақиллигига кўмаклашишга ўз ҳиссасини қўшган тадбиркорлик субъектларини рағбатлантириш.	1. Камбағал оилаларнинг ижтимоийлашувига, бандлигига, шунингдек, молиявий мустақиллигига кўмаклашишга ўз ҳиссасини қўшиб келаётган тадбиркорлик субъектларини давлат ва бошқа мукофотлар билан тақдирлаш, улар орасида «Инсон учун» кўрик-танловини ўтказиш тартибини тасдиқлаш. 2. Камбағалликдан чиққан оилаларнинг ижобий тажрибасини оммалаштириш, улар тўғрисида фильмлар ишлаб чиқиш, даврий нашрлар ва бошқа матбаа маҳсулотларини чоп этиш, кўрсатувлар, радиоэшиттиришларни ташкил этиш. 3. Давлат буюртмаси бўйича яратиладиган кинофильмларда камбағал оилани меҳнат орқали камбағалликдан чиқариш, уларга давлат томонидан тақдим этилаётган ижтимоий ёрдам ва имтиёзларни акс эттириш.	Бир ой муддатда Доимий Доимий	Вилоят Савдо-саноат палатаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги бошқармаси, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси вилоят бошқармаси, Маданият бошқармаси, Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси вилоят телерадиокомпанияси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
II. Барқарор бандлик ва юқори даромад топишга эришиш, тадбиркорлар билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик ўрнатиш, «драйвер» лойиҳаларни амалга ошириш, ер майдонларини камбағал оилаларга ижарага бериш, тадбиркорликка жалб қилиш				
4.	2024 йил якунига қадар 51,3 минг, 2025 йил давомида	1. 2024-2025 йилларга мўлжалланган мақсадли кўрсаткичларни «вилоят — туман (шаҳар) —	2024-2025 йиллар	Вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари

	101,4 минг нафар аҳолини камбағалликдан чиқариш чораларини кўриш юзасидан комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш.	маҳалла» даражасида белгилаш. 2. Мавжуд иқтисодий инструментлар асосида аҳоли бандлигини таъминлаш, ёшларнинг таълим олиши ва касб-ҳунар ўрганиши, аҳолининг тиббий ва ижтимоий хизматлардан фойдаланиши ҳамда маҳаллалар инфратузилмасини ривожлантириш чораларини кўриш. 3. Амалга оширилган ишлар юзасидан чораклик маълумотларни вилоят ҳокимлигига киритиб бориш.	давомида	Х.Сирожитдинов, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бошқармаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
5.	Камбағал оилаларга кўмак чораларини ижтимоий шартнома асосида кўрсатиш тартибини жорий этиш.	1. Ижтимоий шартнома тизимини жорий қилиш бўйича халқаро тажрибани ўрганиш. 2. Давлат томонидан аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг даромадини оширишга қаратилган харажатларни таҳлил қилиш. 3. Ижтимоий шартномани амалиётга жорий этиш тартибини тасдиқлаш учун «Камбағалликдан фаровонлик сари» дастурини амалга ошириш бўйича республика комиссиясига киритиш. 4. Оиланинг меҳнатга лаёқатли аъзоларидан бандликни талаб қилган ҳолда кўрсатиладиган ижтимоий хизматлар ва ёрдамлар рўйхатини тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	2024 йил 1 ноябрь	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бош бошқармаси, Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари

6.	2024-2025 йилларда 10743 нафар камбағал аҳолига пахта-ғалла майдонларини қисқартириш ҳисобига «компания — кооператив — деҳқон хўжалиги» тамойили асосида деҳқончилик ва боғдорчилик ташкил этиш учун ер майдонларини 30 йилгача ижарага бериш.	2024-2025 йилларда туман ҳокимликлари захирасидаги ер майдонларини электрон онлайн аукцион савдоларига қўйиш; ер майдонларини ижарага бериш бўйича электрон онлайн аукцион савдоларини «маҳалла еттилиги»нинг тавсияси билан камбағал оилалар ўртасида ўтказиш; ер майдонларини ижарага бериш бўйича электрон онлайн аукцион савдолари ғолибларига ер участкаси нархини 10 йил муддатга тенг улушларда фоизсиз бўлиб-бўлиб тўлашга рухсат этиш; гаров пулини базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 фоизи миқдорида белгилаш.	2024-2025 йиллар давомида	Вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари Х.Сирожитдинов, Вилоят қишлоқ хўжалиги бошқармаси, Кадастр агентлиги вилоят худудий бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
III. Таълим олиш ва касб-ҳунарга ўрганиш имкониятини яратиш, мактабгача таълим билан қамровни ошириш, хорижий тилларга, касб-ҳунарга ёки мутахассисликка ўқитиш, олий маълумот олишга кўмаклашиш				
7.	Камбағал оилаларнинг фарзандларини мактабдан ташқари таълим ва спорт тўгаракларига қамраб олиш даражасини ошириш.	1. Вилоят бўйича ҳар бир умумтаълим мактабида мавжуд бўш бино-иншоот ва ер майдонларини хатловдан ўтказиш. 2. Хатлов натижаларидан келиб чиқиб, умумтаълим мактабларининг бўш турган ер ва бино-иншоотларида хорижий тиллар, касбга ўқитиш ва ахборот технологиялари ва дастурлаштириш бўйича ўқув курсларини ташкил этиш юзасидан дастурни вилоят ҳокимлигига киритиш. 3. Ҳар бир умумтаълим мактабида, «Баркамол авлод» мактабларида, шу жумладан хусусий секторни жалб қилган ҳолда мактабдан ташқари таълим ва спорт тўгаракларини ташкил этиш. 4. Хусусий мактабгача таълим ташкилотлари ташкил этилишини молиявий рағбатлантириш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига	2024 йил 1 ноябрь Икки ой муддатда 2024 йил 31 декабрь Икки ой муддатда	Вилоят хокимининг ўринбосари Ш.Рахимов, Вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси, Вилоят ёшлар сиёсати ва спорт бошқармаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари

		киритиш.		
8.	2025 йил якунига қадар республикадаги 3-7 ёшли болаларнинг мактабгача таълим билан қамров даражасини 84,5 фоизга етказиш.	1. Маҳаллалар кесимида 3 — 7 ёшли болаларнинг мактабгача таълим билан қамрови даражасини ўрганиб чиқиш. 2. 2025 йил якунига қадар 3 — 7 ёшли болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш дастурини ишлаб чиқиш ва бунда қуйидагиларни назарда тутиш: аҳолининг яшаш даражаси ва тўлов қобилияти юқори бўлган (камбағал оилалар кам бўлган) маҳаллаларда давлат-хусусий шериклик шаклидаги нодавлат мактабгача таълим ташкилотларини ташкил этиш; оилавий нодавлат мактабгача таълим ташкилотларини фақатгина олис ва чекка маҳаллаларда ташкил этиш; аҳолининг тўлов қобилияти паст (камбағал оилалар нисбатан кўп бўлган) ва демографик ўсиш даражаси юқори бўлган маҳаллаларда давлат, шу жумладан, халқаро молия институтлари кредит ва грант маблағлари ҳисобидан давлат-хусусий шериклик шаклидаги нодавлат мактабгача таълим ташкилотларини ташкил этиш; ижтимоий соҳа муассасаларининг бўш биноларида қисқа муддатли гуруҳларни ташкил этиш. 3. 2025-2026 йилларда мактабгача таълим билан қамров даражасини оширишни назарда тутувчи Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳасини тасдиқлаш учун киритиш.	2024 йил 1 октябрь 2024 йил 1 ноябрь 2024 йил 15 ноябрь	Вилоят хокимнинг ўринбосари Ш.Рахимов, вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси, Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
9.	Давлат-хусусий шериклик шаклидаги нодавлат мактабгача	1. Давлат-хусусий шериклик шаклидаги нодавлат мактабгача таълим ташкилотларини	2024 йил 1 декабрь	Вилоят хокимининг ўринбосари Ш.Рахимов,

	таълим ташкилотлари ташкил этилишни рағбатлантириш.	(оилавий мактабгача таълим ташкилотлари бундан мустасно) ташкил этиш ва фаолиятини кенгайтириш истагида бўлган тадбиркорларни молиявий рағбатлантиришнинг (паст фоизли кредит ажратиш) янги механизмини ишлаб чиқиш. 2. Рағбатлантиришнинг янги механизми бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритиш.		Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, Вилоят Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси
IV. Камбағал оилалар аъзоларининг кафолатланган давлат тиббий хизматидан фойдаланиши, тиббий кўрикдан ўтиши ҳамда ўз соғлиғи учун ижтимоий масъулиятини оширишига кўмаклашиш				
10.	Камбағал оилаларни тиббий кўрикдан ўтказиш, уларнинг ўз соғлиғи учун ижтимоий масъулиятини ошириш чораларини кўриш.	1. Камбағал оилаларнинг ҳар бир аъзосини йилда бир марта тўлиқ тиббий кўрикдан ўтказиш графигини ишлаб чиқиш ва тиббий кўрикдан ўтказиш. 2. Камбағал оилаларнинг ўз соғлиғи учун ижтимоий масъулиятини ошириш (кундалик турмуш тарзи ва истеъмолда зарарли одатлардан воз кечиш) бўйича тарғибот ва ташвиқот ишларини амалга ошириш. 3. Камбағал оилалар фарзандларининг ҳар бири спорт тўгаракларига қатнашиши учун имкониятлар яратиш, оиланинг тиббий хизматларга ўз ҳисобидан сарфлайдиган харажатларини қисқартириш чораларини кўриш.	Доимий	Вилоят хокимининг ўринбосари Ш.Рахимов, Соғлиқни сақлаш бошқармаси, Вилоят ёшлар сиёсати ва Спорт бошқармаси, Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги Вилоят бошқармаси, Камбағал оилаларга бириктирилган раҳбарлар ва уларнинг ўринбосарлари
11.	Оиланинг давлат томонидан тақдим этиладиган тиббий хизматлардан тўлиқ фойдаланиши, хусусан, аёллар ва болаларнинг тизимли равишда скринингдан ўтказилишини таъминлаш, хонадонда санитария ҳолатини яхшилаш, оила аъзоларини	1. Аҳолини профилактик тиббий кўриклардан ўтказиш графигини ишлаб чиқиш. 2. Тасдиқланган график асосида тиббий кўриклар ташкил этиш. 3. Соғлом турмуш тарзини тарғибот ва ташвиқот қилиш ишларини амалга ошириш.	2024 йил 1 ноябрь Доимий	Вилоят хокимининг ўринбосари Ш.Рахимов, Соғлиқни сақлаш бошқармаси ва камбағал оилаларга бириктирилган раҳбар ходимлари

	зарарли одатлардан воз кечишга, ёшидан қатъий назар ҳар бир оила аъзосининг жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишига эришиш, қарияларни пиёда юришга ўргатиш.			
V. Ижтимоий хизматдан фойдаланиш имкониятини рўёбга чиқариш чораларини амалга ошириш				
12.	Камбағал оилалар реестрини шакллантириш ҳамда оилаларни камбағалликдан чиқариш бўйича индивидуал режа ишлаб чиқиш тартибини белгилаш.	1. Оилаларни Камбағал оилалар реестрига киритиш ва чиқариш мезонларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш учун «Камбағалликдан фаровонлик сари» дастурини амалга ошириш бўйича республика комиссиясига киритиш. 2. Оилаларни камбағалликдан чиқариш бўйича индивидуал режа ишлаб чиқиш тартибини тасдиқлаш учун «Камбағалликдан фаровонлик сари» дастурини амалга ошириш бўйича республика комиссиясига киритиш. 3. Камбағал оилалар реестрини шакллантириш ҳамда юритишни йўлга қўйиш.	2024 йил 10 ноябрь 2024 йил 1 декабрь 2024 йил 1 декабрь	Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги вилоят бошқармаси, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
VI. Маҳалла инфратузилмасини ривожлантириш, маҳаллани электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш, унинг туман маркази билан транспорт жиҳатидан боғланганлигини яхшилаш, ички йўлларни таъмирлаш ва томорқаларни суғориш суви билан таъминлаш имкониятини яхшилаш, ҳудудларни жадал комплекс ривожлантириш				

13.	Энг оғир аҳволдаги маҳаллаларнинг инфратузилмасини яхшилаш дастурини амалга ошириш.	1. Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган рўйхат бўйича энг оғир аҳволдаги 99 та маҳалланинг инфратузилмаси ҳолатини (электр энергияси, сув, газ, суғориш тизими, интернет, ички йўллар ва бошқа) ўрганиш. 2. Маҳаллаларда томорқа ерларини суғоришни яхшилаш ёки уларга электр энергияси барқарор етказиб берилишини таъминлаш, интернет сифатини яхшилаш, ички йўлларни таъмирлаш ва бошқа инфратузилмани яхшилаш дастурини Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	2024 йил 15 октябрь 2024 йил 20 октябрь	Вилоят хокимининг ўринбосари Х.Исақов, “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ Фарғона ҳудудий филиали, “Ҳудудгаз” Фарғона филиали, “Ўзбектелесом” Фарғона филиали, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси Фарғона вилоят бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
14.	Туман ва шаҳарларнинг ихтисослашувидан келиб чиқиб, саноат, қишлоқ хўжалиги ҳамда хизмат кўрсатиш соҳаларида тадбиркорликни ривожлантириш.	Ҳар бир туман учун саноат, қишлоқ хўжалиги ҳамда хизмат кўрсатиш соҳаларида тадбиркорликни ривожлантиришга туртки берувчи 5 тадан «драйвер» лойиҳалар рўйхатини тасдиқлаш.	Ўн кун муддатда	Вилоят хокимининг биринчи ўринбосари ўринбосари Х.Сирожитдинов, вилоят инвестиция ва ташқи савдо бошқармаси, Марказий банк, тижорат банклари, шаҳар ва туман ҳокимликлари
15.	2024-2025 йилларда жадал комплекс ривожлантириш учун танлаб олинган Қува тумани ва Марғилон шаҳрини комплекс ривожлантириш дастурларини тасдиқлаш чораларини кўриш.	1. 2024-2025 йилларда жадал комплекс ривожлантириш учун танлаб олинган 15 та туман ва шаҳарни комплекс ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. Бунда камида биттадан маҳаллада «яшил маҳалла» лойиҳаларини амалга ошириш назарда тутилади. 2. Тасдиқланган дастур доирасида белгиланган вазифаларни амалга ошириш ва юзага келаётган	2024 йил 1 декабрь Дастурда назарда тутилган муддатларда	Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари

		муаммоларни ўрганиш ва бартараф этиш бўйича чоралар кўриш.		
16.	2025-2026 йилларда қўшимча 2 та туман (шаҳар)ни жадал комплекс ривожлантириш.	1. Ҳудудларни ўрганган ҳолда 2 та туман (шаҳар) рўйхатини шакллантириш. 2. Шакллантирилган рўйхат асосида 2 та туман (шаҳар)ни 2025-2026 йилларга мўлжалланган жадал комплекс ривожлантириш дастурини тасдиқлаш. 3. Тасдиқланган дастур доирасида ишларни манзилли олиб бориш.	2025 йил 1 июль	Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, Тегишли ташкилот ва бошқармалар, шаҳар ва туман ҳокимликлари
VII. Замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш, маҳаллани мунтазам интернет алоқаси билан таъминлаш				
17.	Камбағалликни қисқартириш бўйича рақамли технологияларни ривожлантириш соҳасида зарур чора-тадбирлар дастурини амалга ошириш.	1. Камбағалликни қисқартириш бўйича рақамли технологияларни ривожлантириш соҳасида амалга ошириладиган чора-тадбирлар дастурини тасдиқлаш. Дастурда маҳаллани мунтазам интернет алоқаси билан таъминлаш, ҳар бир камбағал оилага имтиёзли тарзда ноутбук олиб бериш, камбағал оилаларнинг аъзоларининг ахборот технологиялари ва дастурлаш бўйича ўқув курсларида ўқиши учун шароит яратиш, шу жумладан, мактабларда тўгараклар ташкил этишни назарда тутиш. 2. Тасдиқланган дастур доирасида ишларни сифатли ташкил этиш ва доимий мониторинг ўрнатиб бориш чораларини кўриш.	2024 йил 1 ноябрь	Вилоят хокимининг биринчи ўринбосари Х.Сирожитдинов, Рақамли технологиялар бошқармаси, Мактабгача ва мактаб таълими бошқармаси, Иқтисодиёт ва молия бошқармаси, шаҳар ва туман ҳокимликлари
18.	Интернет тармоқлари сифатини ошириш, мактаблар билан бирга камбағал оила	1. Интернет тармоқлари ҳолатини манзилли ўрганиш ва интернет билан боғлиқ муаммолар мавжуд бўлган маҳаллалар рўйхатини	Доимий	Маҳаллаларга бириктирилган вилоят, шаҳар ва туманлар

	аъзолари учун ахборот технологиялари тўгаракларини ташкил этишда юзага келган муаммоларни ҳал этишга кўмаклашиш.	шакллантириш ва Рақамли технологиялар вазирлигига тақдим этиш. 2. Камбағал оилалар фарзандлари учун ахборот технологиялари тўгаракларини ташкил этиш ва аниқланган муаммоларни масъуллар томонидан жойларда ҳал этишга кўмаклашиш.		ташкилот раҳбарлари
19.	Ёшларнинг тафаккурини кенгайтиришга, хорижий тилларни ва матн, жадвал ҳамда графикларни тайёрлаш ва таҳрирлаш дастурларини (microsoft office ва шу каби бошқалар), дастурлаш кўникмаларини ўрганишга асосланган ўқув курслар мажмуини ишлаб чиқиш ҳамда ҳар бир ноутбукларга ўрнатиш.	1. Дастурлаш кўникмаларини ўрганишга асосланган ўқув курслар мажмуини ишлаб чиқиш. 2. Камбағал оила аъзоларининг фарзанд-ларига бериладиган ноутбукларга зарурий ишлаш дастурларини ўрнатиш. 3. Дастурлар билан ишлаш бўйича қўлланмаларни ноутбукка жойлаштириш ва улардан фойдаланиш бўйича зарурий кўникмаларни бериш.	2024 йил 1 ноябрь	Рақамли технологиялар вазирлиги вилоят бошқармаси, Ёшлар ишлар агентлиги вилоят бошқармаси, Мактабгача ва мактаб таълим бошқармаси
20.	Ёшларга тафаккурини кенгайтириш, хорижий тилларни ва дастурлаш асосларини ўрганишга қаратилган масофавий ўқув курсларида бепул ўқиш имкониятини яратиш ҳамда ундан эркин фойдаланишни таъминлаш.	1. Масофавий ўқув курсларида бепул ўқиш тартибини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 2. Ёшларнинг тафаккурини кенгайтириш, хорижий тилларни ва дастурлаш асосларини ўрганиш бўйича йиллик буюртмаларни ишлаб чиқиш. 3. Масофавий ўқув курсларини ташкиллаштириш ҳамда мониторинг ишларини олиб бориш.	Уч ой муддатда	Рақамли технологиялар бошқармаси, Ёшлар ишлар агентлиги вилоят бошқармаси, Мактабгача ва мактаб таълим бошқармаси

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
529-11-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
529-11-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova